



## O'ZBEK MILLIY KURASHI VOSITASI YORDAMIDA YOSHLARNI MA'NAVIY- AXLOQIY TARBIYASINI OSHIRISH.

**Parpiyev Oybek Abduraxmonovich**

*Far'ona davlat universiteti*

**Annotatsiya:** *Maqolada yoshlarni to'g'ri yo'lga solish va ularni har tomonlama sog'lom, barkamol bo'lib yetishishida milliy kurashni o'rgatishni oiladan boshlash muhim ahamiyatga ega ekanligi aytib o'tilgan. Kurashchilarning ma'-naviy-axloqiy sifatlari jismoniy tarbiya va sport faoliyati mutaxassisleri, keng jamoatchilik oldida zamonaviy ilmiy-amaliy uslublar va yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda hal etadigan bir qator yangi-yangi masalarini qo'yimoqda.*

**Kalit so'zlar:** *Kurash, milliy, ilmiy-amaliy, yosh sportchilar, pedagogic texnologiyalar, bellashuv.*

Mamlakatimizda chuqur o'zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni de-mokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bunda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida belgilab olingan va izchil ravishda amalga oshirilayotgan ulkan vazifalar mus-tahkam zamin yaratmoqda.

Tariximizga kirib kelayotgan buyuk marra munosabati bilan o'tgan davr mobaynida hayotimiz sifati, mamlakatimiz qiyofasi qanday o'zgarib borayotgani, qanday yutuq va natijalarga erishganimiz, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida qanday sur'atlar bilan rivojlanib borayotganimizni baholash ehtiyoji tug'ilmoqda.

Qisqacha aytganda, biz o'z oldimizga qo'ygan uzoq muddatli strategik maqsadlar, ya'ni zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, iqtisodiyotimizning barqaror o'sishini ta'minlash, hayot sifatini yaxshilash va jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallash borasidagi sa'y-harakatlarimizga bugungi kun nuqtai nazaridan holisona baho berishimiz tabiiydir.

O'zbek milliy kurashi uch ming yildan ziyod tarixga ega bo'lib, shug'ullanuvchi, kurash tushuvchi polvonlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida, kurash azaldan muhim o'rin tutgan. Kurashni milliy qadriyat va sport turi sifatida o'rganish uni tarbiyaviy ahamiyatini ochib borishda A. Atoyev, J. Tursunov, O. Toymurodov, J. Toshpulatov, U.Ibrohimov, X. Rafiyev, K. Yusupov, A. Ro'ziyev, N. Azizovlarning tadqiqot ishlari o'z aksini topgan. Albatta, sport turi orqali yoshlarni har tomonlama tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan ekanligiga shubha yo'q. Chunki milliy sport turlarimizda qadriyat, vatanga muhabbat, o'zaro munosa-batda ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ay-niqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qi-lish barobarida mamlakatning mustahkam poydevorinini yaratishda, uni jahon hamjamiyatida tutgan



o'rnini yanada mustahkamlashda o'zbek milliy kurash sport turi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlarni to'g'ri yo'lga solish va ularni har tomonlama sog'lom, barkamol bo'lib yetishishida milliy kurashni o'rgatishni oiladan boshlash muhim ahamiyatga ega. Kurash ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan bo'lib chuqur ma'no mujassam jismoniy, ma'naviy va axloqiy tarbiyaning bitmas tuganmas, milliy qadriyatlarni o'zida aks ettirgan tarixan asrlar davomida mardlik, bag'rikenglik, oliyanob-lik va halollik timsoli sifatida e'zozlanib kelingan. Kurashchilarning ma'-naviy-axloqiy sifatlari jismoniy tarbiya va sport faoliyati mutaxassisleri, keng jamoatchilik oldida zamonaviy ilmiy-amaliy uslublar va yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda hal etadigan bir qator yangi-yangi masalar-ni qo'ymoqda.

Darhaqiqat o'quv – mashg'ulotlar jarayonida eng yuqori natijalarga erishish uchun, birinchi o'rinda jismoniy sifatlari, texnik, taktik tayyorgarlik bo'lsa, eng oliy o'rinda esa ma'naviy – axloqiy tarbiya turadi.

“Ma'naviyat”, deb ta'kidlagandi Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov o'z asarlarida, tarbiyaning eng ta'sirchan quroli ekan undan oqilona foydalanish, bolalarimizni vatanparvarlik, rostgo'ylik, xalqsevarlikka o'rgatish kerak bo'la-di. Aslini olganda axloq – ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki salo-matlik, xushmuomaladangina emas. Axloq – bu avvalo, insof va adolat tuyg'usi, iymon halollik degani”. O'zbek milliy kurashida odob-axloq va ma'naviy yetuk-lik kabi fazilatlar qadrlanadi. Komil inson tarbiyasi milliy qadriyatlar yor-damida amalga oshiriladi, qadriyatlar borki, bular inson aqlini, zakovatini charxlaydi, inson qalbini jamiyat talablariga muvofiqlashtiradi. Alohida qad-riyatlar borki, ular inson tanasini, jismini chiniqtiradi, baquvvatlashtiradi. O'zbek milliy kurashi shu qadriyatlarning hammasini o'zida mujassamlashtirgan va aynan shu ma'noda muhim milliy qadriyat sifatida e'tiborga molik. Milliy kurash bilan shug'ullanish jarayonida sportchi qalbiga mardlik kiradi, ular qa-dimdagidek tizza bukmay yashashga o'rganadilar, yiqilganlarga yordam qo'lini cho'za-dilar. Kurash farovon hayotga tayanch bo'la oladi, o'zbek xalqi azaldan tinchlik, adolat va barqarorlikka xizmat qiluvchi polvonlarni qadrlaydi.

Kurash usullariga tarbiyaviy ahamiyat berilishi bejiz emas albatta. O'sib kelayotgan yosh navqiron avlod ongi va qalbida milliy istiqlol g'oyasini singdirish, usul, vosita va omillar qatorida milliy kurash o'ziga xos xususiyatga ega. Kurash nafaqat jismonan chiniqqanlikni taqozo etadi, balki yoshlar ma'naviyatiga, har tomonlama barkamol, komil bo'lib voyaga yetishishida xizmat qiladi. Bizning xal-qimiz kurashni insonni jismoniy, ma'naviy – g'oyaviy tarbiyalash vositasi deb qadimdan bilgan. Chunki polvonlikni o'ziga xos ma'naviy-axloqiy talablarini qadrlaganlar. Milliy kurash qoidalari insonparvarligi, halollik va adolat mezonlari asosida tavsiflanadi:

maydonda chiqishda va bellashuvning tugaganidan so'ng natijaning qanday va kimning foydasida bo'lishidan qat'iy nazar qo'li ko'ksida ta'zim qiladi;

bellashuv boshlangani zahoti bir – birini qo'l berib ko'rishadi;

kurashchilar sog'ligi uchun xavfli bo'lgan usullarning ta'qiqlanishi;



belning pastki qismidan ushlab mumkin emasligida;  
raqibni yerdan ko'tarmasdan turib unga oyoq harakatlarini qo'llamaslikda;  
Bellashuv vaqtida belbog'ni qo'yib yubormaslik kabi fazilatlar kurashchilarda mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalashga qodir. Kurashdagi ushbu odob-axloq prinsiplari yoshlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda asosiy omillardan bo'lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yuldashov, I., Parpiev, O., Makhmutaliev, A., Tukhtanazarov, I., & Umaralievich, K. U. (2021). Pedagogical bases of formation of physical culture and social culture in Youth. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(11), 54-58.
2. Юлдашов, И., Парпиев, О., & Абдурахмонов, Ш. (2022). Жисмоний Тарбия Таълимида Спорт Ифодаси. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 2), 222-225.
3. Islamov, I. A. J., & Parpiev, O. A. (2020). SOME MODERN PEDAGOGICAL FEATURES OF THE PROCESS OF PROFESSIONAL TRAINING OF THE TEACHER OF PHYSICAL CULTURE. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(1), 313-316.
4. Парпиев, О., Абдурахмонов, Ш., & Ғайратжон, Ғ. (2022). Жисмоний Тарбиялаш Жараёнида Ёшларнинг Харакат Сифатларини Тарбиялашнинг Аҳамиятли Жиҳатлари. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 3), 103-108.
5. Parpiev, O. (2022). Means of sports activities and methods. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(2), 112-117.
6. Abduraxmonovich, P. O. (2023). XOTIN-QIZLAR JISMONIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH USTUVOR VAZIFA SIFATIDA. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 1266-1269.
7. Agzamovich, M. A. (2021). Monitoring of the Motor Readiness of the Students of the National Guard Courses. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 2(12), 108-110.
8. Avazbek, M. (2022, October). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ МУАССАСАЛАРИДА НАРАКАТЛИ О'ЙНЛАРНИ ТАШКИЛЛАШНИНГ ДИДАКТИК ПРИНЦИПЛАРИ. In *E Conference Zone* (pp. 32-44).
9. Mekhmonov, R. (2022). MONITORING OF THE INFLUENCE OF HYPODYNAMIC FACTORS AND PHYSICAL PREPARATION OF STUDENTS. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 6(6), 11-20.
10. Маматов, А. А. (2023). ПОДВИЖНЫЕ ИГРЫ ДЛЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. *Gospodarka i Innowacje*, 32, 40-43.
11. Aagzamovich, M. A. (2023). О 'QUVCHILAR SALOMATLIGIDA MILLIY НАРАКАТЛИ О 'YINLARNING О 'RNI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 3(31), 8-13.



12. Islamov, I. A. (2021). Fundamentals of promotion of sports and competitions and physical training among school students. Current research journal of pedagogics, 2(06), 85-89.

13. Islomkhoja, I. (2021). STUDY OF STUDENT LEVELS OF MOVEMENT ACTIVITY AND INTEREST IN PHYSICAL TRAINING AND SPORTS TEACHER OF FACULTY OF PHYSICAL CULTURE. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.5 Pedagogical sciences).

14. Islomkhoja, I. (2020). Socio-pedagogical purposes of modern physical education. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training.

15. Azimkhojaevich, I. I. (2022). PEDAGOGICAL FEATURES OF INCREASING STUDENT MOVEMENT ACTIVITY (ON THE EXAMPLE OF WRESTLING AND MOVING GAMES). Science and innovation, 1(B2), 295-299.

16. Исломов, И. А. (2022). ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ТЕХНИК ҲАРАКАТЛАРИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ АСОСИДА ЧАҚҚОНЛИК СИФАТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ (КУРАШ МИСОЛИДА). INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(4), 7-11.

17. Azimkhujaevich, I. I., & Madaminovich, D. E. (2022). SCIENTIFIC AND THEORETICAL APPROACHES TO THE USE OF THE GAME METHOD IN PHYSICAL EDUCATION LESSONS FOR SCHOOLCHILDREN (PECULIARITIES OF THE PHYSIOLOGICAL DEVELOPMENT OF SCHOOLCHILDREN). IJODKOR O'QITUVCHI, 2(24), 15-21.

18. Azimxo'jayevich, I. I. J. (2022). Training of Personnel in the Field of Physical Education and Sports. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 15, 156-160.

19. Исломов, И. (2023). АНАТОМО-ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ШКОЛЬНИКОВ МЛАДШЕГО, ПОДРОСТКОВОГО И ЮНОШЕСКОГО ВОЗРАСТА. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(4), 596-600.

20. Исломов, И. А. (2022). ИССЛЕДОВАНИЕ ДВИГАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ И ИНТЕРЕСА К ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ У УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(25), 80-85.

21. Islamov, I. A. J., & Parpiev, O. A. (2020). SOME MODERN PEDAGOGICAL FEATURES OF THE PROCESS OF PROFESSIONAL TRAINING OF THE TEACHER OF PHYSICAL CULTURE. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(1), 313-316.

22. Исломов, И. А., & Джураев, Э. М. (2023). РОЛЬ ЖЕНЩИН В РАЗВИТИИ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В СЕМЬЕ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 1270-1275.

23. Исломова, Н. Л. (2022). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMİY JURNALI, 2(12), 12-17.



24. Исломов, И. (2023). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ИГРОВОГО МЕТОДА НА УРОКАХ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У ДЕТЕЙ ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.(ОСОБЕННОСТИ ФИЗИОЛОГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА). Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(6 Part 3), 176-183.

25. Исломов, И. (2023). ДИНАМИКА ТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ЮНЫХ ГАНДБОЛИСТОВ В ГРУППАХ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 723-728.

26. Islomxo, I., & Madaminovich, D. E. (2023). 10-12 YOSHLI SPORTCHILARDA TEZKORLIK SIFATLARINI TARBIYALASHNING NAZARIY VA AMALIY USLUBLARI. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(31), 33-38.